



*2023- yil yanvar-dekabr oylari
uchun dastlabki ma'lumot*

NAVOIY VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi:
Tel.: (99879) 223-50-43*



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Navoiy viloyatida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Viloyatimizda bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, **2023-** yil yanvar-dekabr oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **1 326,7 mln. AQSH** dollariga etdi va **2022-** yilning mos davriga nisbatan **107,8 %** ni tashkil etdi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-dekabr, mln. AQSH dollari)



Tashqi savdo aylanmasi

2023- y.: **1 326,7** +7,8 %

(2022- y.: **1 230,3**)



Saldo

2023- y.: **-30,5** (2022- y.: **-68,3**)




Eksport

2023- y.: **648,1** +11,5 %

(2022- y.: **581,0**)

TSAdagi ulushi, %da

48,8



Import

2023- y.: **678,6** +4,5 %

(2022- y.: **649,3**)

51,2



Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasi O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.



Navoiy viloyati jahonning **70** ta mamlakatlar bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Fransiyada (**29,2 %**), Rossiya Federatsiyasida (**16,9 %**), Xitoy Xalq Respublikasida (**14,6 %**), Qozog‘istonda (**5,6 %**) va Turkiyada (**4,5 %**) qayd etilgan.



NAVOIY VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2023- yil yanvar-dekabr, mln. AQSH dollari)

Fransiya	Rossiya	Xitoy Xalq Respublikasi	Qozog‘iston	Turkiya
TSA – 387,1	TSA – 224,6	TSA – 194,1	TSA – 74,6	TSA – 60,0
Eksport: 382,4 Import: 4,7	Eksport: 65,8 Import: 158,8	Eksport: 14,2 Import: 179,9	Eksport: 18,4 Import: 56,2	Eksport: 29,3 Import: 30,7
Ulushi 29,2 %	Ulushi 16,9 %	Ulushi 14,6 %	Ulushi 5,6 %	Ulushi 4,5 %
Latviya	Hindiston	Yaponiya	Litva	Germaniya
TSA – 59,1	TSA – 51,6	TSA – 42,8	TSA – 24,4	TSA – 24,4
Eksport: 0,1 Import: 59,0	Eksport: 40,2 Import: 11,4	Eksport: 0,0 Import: 42,8	Eksport: 9,0 Import: 15,4	Eksport: 0,0 Import: 24,4
Ulushi 4,5 %	Ulushi 3,9 %	Ulushi 3,2 %	Ulushi 1,8 %	Ulushi 1,8 %

So'ngi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishda, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida, eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi.



Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

Xususan, qo'shni davlatlar Qozog'iston, Afg'oniston va Qirg'iz Respublikasi bilan TSA da so'ngi yillarda katta o'zgarishlar kuzatildi. Misol uchun, so'ngi uch yilda TSA Qozog'iston, Afg'oniston, Qirg'iz Respublikasi, Tojikiston Turkmaniston va bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda.

Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Fransiya, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Turkiya, Latviya, Hindiston, Yaponiya, Litva, Germaniya va Koreya Respublikasi hissasiga to'g'ri kelgan.



NAVOIY VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-dekabr, mln. AQSH dollari)

Davlatlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.
Fransiya	14,4	63,9	387,1
<i>Eksport</i>	10,8	60,5	382,4
<i>Import</i>	3,6	3,4	4,7
Rossiya Federatsiyasi	200,4	281,8	224,6
<i>Eksport</i>	56,4	87,6	65,8
<i>Import</i>	144,0	194,2	158,8
Xitoy Xalq Respublikasi	191,8	240,5	194,1
<i>Eksport</i>	98,0	68,2	14,2
<i>Import</i>	93,8	172,3	179,9
Qozog'iston	86,7	98,2	74,6
<i>Eksport</i>	17,0	23,2	18,4
<i>Import</i>	69,7	75,0	56,2
Turkiya	80,6	68,9	60,0
<i>Eksport</i>	47,0	38,9	29,3
<i>Import</i>	33,6	30,0	30,7
Latviya	1,2	6,6	59,1
<i>Eksport</i>	0,2	-	0,1
<i>Import</i>	1,0	6,6	59,0
Hindiston	3,0	17,7	51,6
<i>Eksport</i>	0,2	-	40,2
<i>Import</i>	2,8	17,7	11,4
Yaponiya	20,1	31,1	42,8
<i>Eksport</i>	0,2	-	-
<i>Import</i>	19,9	31,1	42,8
Litva	81,3	19,6	24,4
<i>Eksport</i>	15,6	12,9	9,0
<i>Import</i>	65,7	6,7	15,4
Germaniya	14,8	16,7	24,4
<i>Eksport</i>	-	-	-
<i>Import</i>	14,8	16,7	24,4

Davomi


Davlatlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.
Afg'oniston	10,2	11,6	23,3
<i>Eksport</i>	9,6	11,6	23,3
<i>Import</i>	0,6	-	-
Koreya Respublikasi	25,8	23,2	21,9
<i>Eksport</i>	0,3	-	-
<i>Import</i>	25,5	23,2	21,9
Qirg'iz Respublikasi	9,7	31,5	21,8
<i>Eksport</i>	9,3	28,5	18,9
<i>Import</i>	0,4	3,0	2,9
Daniya	0,6	0,1	16,5
<i>Eksport</i>	-	-	15,5
<i>Import</i>	0,6	0,1	1,0
Eron Islom Respublikasi	9,7	11,7	10,2
<i>Eksport</i>	2,2	3,7	4,4
<i>Import</i>	7,5	8,0	5,8
Buyuk Britaniya	4,2	0,3	9,7
<i>Eksport</i>	-	-	-
<i>Import</i>	4,2	0,3	9,7
Tojikiston	3,8	8,9	6,7
<i>Eksport</i>	3,5	8,8	6,5
<i>Import</i>	0,3	0,1	0,2
Turkmaniston	25,9	28,3	6,0
<i>Eksport</i>	24,4	27,0	4,5
<i>Import</i>	1,5	1,3	1,5
Chexiya Respublikasi	26,3	1,9	5,8
<i>Eksport</i>	0,4	-	-
<i>Import</i>	25,9	1,9	5,8
Italiya	7,2	2,1	5,7
<i>Eksport</i>	-	0,1	4,3
<i>Import</i>	7,2	2,0	1,4




NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar-dekabr)

	Hajm Ming AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Navoiy viloyati	1 326 649,6	107,8	100,0
Navoiy sh.	793 927,2	120,0	59,8
Zarafshon sh.	12 605,2	72,5	0,9
G'ozg'on sh.	5 192,4	4,3 b.	0,4
<i>tumanlar:</i>			
Karmana t.	348 808,5	89,6	26,3
Konimex t.	5 575,0	4,9 b.	0,4
Qiziltepa t.	29 059,9	37,3	2,2
Navbahor t.	42 596,4	95,8	3,2
Nurota t.	10 057,3	121,2	0,8
Tomdi t.	1 077,6	39,8	0,1
Uchquduq t.	11 050,1	69,2	0,8
Xatirchi t.	65 787,5	6,5 b.	5,0
Bo'linmaydigan hajm	912,5	-	0,1

Eng yuqori hajm,
ming AQSH dollari




Eng quyi hajm,
ming AQSH dollari



Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Navoiy shahri **59,8 %** ulush bilan **793 927,2** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng quyi ulushni Tomdi tumani **0,1 %** ulush bilan **1 077,6** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

NAVOIY VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-dekabr, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)



Tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2023- yil yanvar-dekabr oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **25,7 %** ni tashkil etdi.



Boshqa xorijiy davlatlarning tashqi savdo aylanmasi 2023- yil yanvar-dekabr oylarida 2022- yilning shu davriga nisbatan **129,2 %** ni, jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi **74,3 %** ni tashkil etdi.

NAVOIY VILOYATINING EKSPORTI




Hisobot davrida tovarlar va xizmatlar eksporti bilan shug'ullanuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarning eksport hajmi **648,1** mln. AQSH dollarini tashkil etdi. 2022- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **111,5** % ni tashkil etdi. Eksport tarkibida asosan katta ulush kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (**67,4** %), sanoat tovarlari (**15,6** %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**5,1** %) hissasiga tog'ri kelmoqda.



XSST* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2023- yil yanvar-dekabr, ulushi % da)



O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (**keyingi o'rinlarda TIF TN**) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (**keyingi o'rinlarda – XSST**) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni **XSST** bo'yicha kodlashtirish, **TIF TN** va **XSST** o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.




NAVOIY VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI (yanvar-dekabr, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da	Umumiy hajmga nisbatan, % da
	2022 y.	2023 y.		
Jami eksport	581,0	648,1	111,5	100,0
<i>shu jumladan:</i>				
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	20,5	33,4	162,9	5,1
Ichimliklar va tamaki	0,1	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	49,3	30,9	62,6	4,7
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	8,8	23,4	2,7 b.	3,6
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,3	1,1	3,3 b.	0,2
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	363,3	436,6	120,2	67,4
Sanoat tovarlari	114,1	100,9	88,4	15,6
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	0,2	5,2	21,4 b.	0,8
Turli xil tayyor buyumlar	21,1	14,9	70,9	2,3
Xizmatlar	3,3	1,7	50,4	0,3

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida 2022- yilning mos davriga nisbatan sezilarli o'zgarishlar qayd etildi, biroq shuni ta'kidlash joizki, 2022- yilning mos davriga nisbatan mashinalar va transport asbob-uskunalari, hayvon va o'simliklar moylari, mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar hamda kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlarning eksport tarkibida o'sish kuzatildi.




NAVOIY VILOYATINING EKSPORT HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-dekabr, mln. AQSH dollari)



Navoiy viloyatida 2023- yil yanvar-dekabr oylarida eksport hajmi **648,1** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-dekabr, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)



2023- yilning yanvar-dekabr oylarida MDH mamlakatlariga **120,2** mln. AQSH dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning **18,5 %** ini tashkil etdi.



NAVOIY VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-dekabr, % da)



2023- yilning yanvar-dekabr oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Fransiya (eksport umumiy hajmining **59,0 %**), Rossiya Federatsiyasi (**10,2 %**), Hindiston (**6,2 %**), Turkiya (**4,5 %**), Afg'oniston (**3,6 %**), Qirg'iz Respublikasi (**2,9 %**) va Qozog'iston (**2,8 %**) saqlanib qolmoqda hamda ularning jami eksportdagi ulushi **89,2 %** ni tashkil etmoqda.



NAVOIY VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-dekabr, yillar kesimida)*

Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da	Egallab turgan o'rni
	2022 y.	2023 y.		
Fransiya	60 462,8	382 429,7	6,3 b.	1
Rossiya Federatsiyasi	87 587,5	65 830,9	75,2	2
Hindiston	2,5	40 228,9	16245,3 b.	3
Turkiya	38 938,8	29 296,6	75,2	4
Afg'oniston	11 599,0	23 303,3	2,0 b.	5
Qirg'iz Respublikasi	28 506,1	18 869,5	66,2	6
Qozog'iston	23 240,3	18 410,0	79,2	7
Daniya	0,1	15 520,0	272281,0 b.	8
Xitoy Xalq Respublikasi	68 242,6	14 228,7	20,9	9
Litva	12 928,0	9 009,4	69,7	10
Tojikiston	8 790,2	6 522,4	74,2	11
Turkmaniston	27 024,1	4 500,8	16,7	12
Eron Islom Respublikasi	3 681,8	4 439,6	120,6	13
Italiya	115,3	4 312,0	37,4 b.	14
Belarus	3 678,8	3 522,9	95,8	15
Pokiston	1 278,3	1 594,7	124,8	16
Ozarbayjon	1 250,7	1 441,5	115,3	17
Polsha	1 894,5	717,7	37,9	18
Kanada	198 918,6	567,2	0,3	19
Armeniya	420,1	565,1	134,5	20

Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Jumladan, hisobot davrida tovarlar va xizmatlar eksportida ishtirok etgan davlatlar soni **40** tani tashkil etdi.



NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI

(2023- yil yanvar-dekabr)

	Hajm Ming AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Navoiy viloyati	648 065,2	111,5	100,0
Navoiy sh.	477 100,2	116,7	73,6
Zarafshon sh.	2 153,8	43,6	0,3
G'ozg'on sh.	2 301,9	4,0 b.	0,4
<i>tumanlar:</i>			
Karmana t.	71 233,6	98,7	11,0
Konimex t.	1 025,5	140,1	0,2
Qiziltepa t.	6 811,5	13,7	1,0
Navbahor t.	24 455,4	80,1	3,8
Nurota t.	6 798,2	115,8	1,0
Tomdi t.	161,2	16,9	0,02
Uchquduq t.	1 312,2	128,4	0,2
Xatirchi t.	54 186,6	9,3 b.	8,4
Bo'linmaydigan hajm	525,1	-	0,1

Eng yuqori hajm,
ming AQSH dollari

73,6 %

Navoiy sh. - 477 100,2

11,0 %

Karmana t. - 71 233,6

8,4 %

Xatirchi t. - 54 186,6

Eng quyi hajm,
ming AQSH dollari

0,02 %

Tomdi t. - 161,2

0,2 %

Konimex t. - 1 025,5

0,2 %

Uchquduq t. - 1 312,2

Viloyatning eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Navoiy shahri **73,6 %** ulush bilan **477 100,2** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

Viloyatda eksporti tarkibida eng quyi ulushni Tomdi tumani **0,02 %** ulush bilan **161,2** ming AQSH dollarini tashkil etdi.



TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORT DINAMIKASI

(yanvar-dekabr, % da)

XSST tarkibi	2021- y.	2022- y.	2023- y.
Jami	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	5,3	3,5	5,1
Ichimliklar va tamaki	-	0,02	-
Nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari	5,8	8,5	4,7
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,6	1,5	3,6
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	0,1	0,2
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	60,9	62,5	67,4
Sanoat tovarlari	21,5	19,6	15,6
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	0,4	0,04	0,8
Turli xil tayyor buyumlar	2,7	3,6	2,3
Xizmatlar	2,8	0,6	0,3

2023- yil yanvar-dekabr oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, so'ngi uch yil davomida eksport tarkibi dinamikasida kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlari ulushi **6,5** punktga oshib **67,4** % ni, mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar ulushi **3,0** punktga oshib **3,6** % ni tashkil etdi.

NAVOIY VILOYATINING AYRIM DAVLATLAR BILAN EKSPORT TARKIBI (2023- yil yanvar-dekabr, mln. AQSH dollari)


XSST tarkibi	Fransiya		Rossiya Federatsiyasi		Hindiston		Turkiya	
	2022- y.	2023- y.	2022- y.	2023- y.	2022- y.	2023- y.	2022- y.	2023- y.
Jami eksport	60,4	382,4	87,6	65,8	-	40,2	38,9	29,3
shu jumladan:								
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	-	-	0,7	1,2	-	-	0,3	0,1
Nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari	-	-	37,1	23,1	-	-	1,8	2,4
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	-	-	0,5	0,1	-	-	7,4	7,7
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	-	-	-	-	-	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	60,4	382,3	2,5	2,9	-	40,2	-	-
Sanoat tovarlari	-	-	32,2	20,9	-	-	28,6	18,9
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	-	-	0,1	3,9	-	-	-	0,2
Turli xil tayyor buyumlar	-	0,1	13,1	13,1	-	-	-	-
Xizmatlar	-	-	1,4	0,6	-	-	0,8	-



Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar hamda sanoat tovarlari kiradi.



XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI (2023- yil yanvar-dekabr, ulushi, % da)




Xizmatlar eksporti hajmi 1,7 mln. AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 0,3 % ini tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 50,4 % ni tashkil etdi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi moliyaviy xizmatlar (38,8 %), transport xizmatlari (28,6 %) safarlar (turizm xizmatlari) (17,2 %), va boshqa xizmatlar (15,4 %) hissasiga to'g'ri kelgan.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2023- yil yanvar-dekabr, ming AQSH dollari)

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 9 818,0 ming AQSH dollar qiymati 17 127,8 tonna meva-sabzavot eksport qilingan hamda 2022- yilning mos davriga nisbatan 92,2 % ni tashkil qildi. Shundan salmog'i yirik hududlarda meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksporti hajmi Xatirchi tumanida 4 182,3 ming AQSH dollarini, Qiziltepa tumanida 2 952,5 ming AQSH dollarini, Navbahor tumanida 731,2 ming AQSH dollarini va Karmana tumanida 676,5 ming AQSH dollarini tashkil etmoqda.





MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2023- yil yanvar-dekabr)

Davlatlar	Tonna	Ming AQSH dollari	Ulushi, % da *
Xitoy Xalq Respublikasi	3 607,2	3 866,9	39,4
Qozog'iston	9 232,1	3 508,5	35,7
Pokiston	2 296,7	1 152,5	11,7
Afg'oniston	376,2	446,5	4,6
Litva	562,3	265,0	2,7
Estoniya	363,9	141,6	1,4
Latviya	473,7	137,2	1,4
Eron Islom Respublikasi	90,0	102,0	1,1
Rossiya Federatsiyasi	57,1	80,3	0,8
Isroil	11,0	62,6	0,6
Aljir	36,0	52,3	0,5
Iroq	21,6	2,6	0,1

* qiymat ifodasidan



2023- yil yanvar-dekabr oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Xitoy Xalq Respublikasi (**39,4 %**), Qozog'iston (**35,7 %**) va Pokiston (**11,7 %**) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.



NAVOIY VILOYATINING IMPORTI




2023- yil yanvar-dekabr oylarida import hajmi **678,6** mln. AQSH dollarini va 2022- yilning mos davriga nisbatan **104,5** % ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (**43,2** %), sanoat tovarlari (**28,7** %), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (**13,1** %) ga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2023- yil yanvar-dekabr, ulushi, % da)



Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida import qilingan tovarlar hajmi **657,9** mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa **20,7** mln. AQSH dollariga etdi.



NAVOIY VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-dekabr, yillar kesimida)


XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da	Umumiy hajmga nisbatan, % da
	2022 y.	2023 y.		
Jami import	649,3	678,6	104,5	100,0
<i>shu jumladan:</i>				
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	17,7	33,5	188,6	4,9
Ichimliklar va tamaki	-	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	13,6	13,9	102,1	2,1
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	9,6	2,7	28,0	0,4
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	1,8	5,7	3,1 b.	0,8
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	98,7	88,7	89,9	13,1
Sanoat tovarlari	199,8	195,0	97,6	28,7
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	242,8	293,0	120,7	43,2
Turli xil tayyor buyumlar	49,6	25,4	51,2	3,7
Xizmatlar	15,7	20,7	131,8	3,1

Importning eng katta ulushi, mashinalar va transport asbob-uskunalari (**43,2 %**), sanoat tovarlari (**28,7 %**), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (**13,1 %**) va oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**4,9 %**) hissasiga to'g'ri keladi.

Import qilinadigan tovar va xizmatlarning umumiy hajmining tuzilishini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, 2022- yilning mos davriga nisbatan hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar (**3,1 barobar**), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**88,6 %**), xizmatlar (**31,8 %**), mashinalar va transport asbob-uskunalar (**20,7 %**) va noziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari (**2,1 %**) o'sgan.



NAVOIY VILOYATINING IMPORT HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-dekabr, mln. AQSH dollari)




Navoiy viloyatida 2023- yil yanvar-dekabr oylarida import hajmi **678,6** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-dekabr, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)

MDH mamlakatlari va boshqa xorijiy davlatlar bilan import ulushining dinamikasi 2023 yil davrda ushbu ko'rsatkich **32,5** va **67,5** % ni tashkil etdi.



Yetti yirik hamkor davlatlar (Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Latviya, Qozog'iston, Yaponiya, Turkiya va Germaniya) jami importning **81,3** % ini tashkil qiladi, bu **551,7** mln. AQSH dollarini tashkil etadi.



NAVOIY VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-dekabr, % da)





NAVOIY VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI

(yanvar-dekabr, yillar kesimida)

Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da	Umumiy hajmdagi o'rni
	2022 y.	2023 y.		
Xitoy Xalq Respublikasi	172 286,5	179 852,1	104,4	1
Rossiya Federatsiyasi	194 234,7	158 792,5	81,8	2
Latviya	6 607,6	58 961,5	8,9 b.	3
Qozog'iston	74 978,0	56 199,5	75,0	4
Yaponiya	31 116,1	42 814,4	137,6	5
Turkiya	29 975,1	30 658,7	102,3	6
Germaniya	16 698,4	24 399,0	146,1	7
Koreya Respublikasi	23 148,4	21 890,0	94,6	8
Litva	6 743,9	15 403,1	2,3 b.	9
Hindiston	17 686,9	11 373,2	64,3	10
Buyuk Britaniya	256,5	9 729,9	37,9 b.	11
Eron Islom Respublikasi	7 997,7	5 833,1	72,9	12
Chexiya Respublikasi	1 907,8	5 808,6	3,0 b.	13
Fransiya	3 438,2	4 719,3	137,3	14
Polsha	1 368,7	4 693,5	3,4 b.	15
Gonkong	801,2	4 356,0	5,4 b.	16
Avstriya	2 490,2	3 943,5	158,4	17
Kanada	5 333,4	3 457,8	64,8	18
AQSH	2 437,4	3 384,0	138,8	19
Qirg'iz Respublikasi	3 009,0	2 945,8	97,9	20

2023- yil yanvar-dekabr oylari yakuni bo'yicha **61** ta davlatlar bilan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi.



NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI (2023- yil yanvar-dekabr)

	Hajm Ming AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Navoiy viloyati	678 584,4	104,5	100,0
Navoiy sh.	316 827,0	125,2	46,7
Zarafshon sh.	10 451,4	84,0	1,5
G'ozg'on sh.	2 890,5	4,6 b.	0,4
<i>tumanlar:</i>			
Karmana t.	277 574,9	87,6	40,9
Konimex t.	4 549,5	11,3 b.	0,7
Qiziltepa t.	22 248,4	78,8	3,3
Navbahor t.	18 141,0	130,1	2,7
Nurota t.	3 259,1	134,1	0,5
Tomdi t.	916,4	52,4	0,1
Uchquduq t.	9 737,9	65,1	1,4
Xatirchi t.	11 600,9	2,7 b.	1,7
Bo'linmaydigan hajm	387,4	-	0,1

Eng yuqori hajm,
ming AQSH dollari



Eng quyi hajm,
ming AQSH dollari



Viloyatning import tarkibida eng yuqori ulushni Navoiy shahri **46,7 %** ulush bilan **316 827,0** ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Tomdi tumani **0,1 %** ulush bilan **916,4** ming AQSH dollarini tashkil etdi.



TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI DINAMIKASI

(yanvar-dekabr, % da)

XSST tarkibi	2021- y.	2022- y.	2023- y.
Jami	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	3,9	2,7	4,9
Nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari	1,2	2,1	2,1
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,3	1,5	0,4
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	0,3	0,8
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	12,3	15,2	13,1
Sanoat tovarlari	16,7	30,8	28,7
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	51,6	37,4	43,2
Turli xil tayyor buyumlar	8,2	7,6	3,7
Xizmatlar	5,8	2,4	3,1




2023- yil yanvar-dekabr oylarida import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki, mashinalar va transport asbob-uskunalarida 2022- yilning mos davriga nisbatan importning ulushi **37,4 %** dan **43,2 %** gacha, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlarda importning ulushi **2,7 %** dan **4,9 %** gacha, xizmatlarda esa **2,4 %** dan **3,1 %** gacha o'sdi.



XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI

(2023- yil yanvar-dekabr mln. AQSH doll., ulushi, % da)

2023- yil yanvar-dekabr oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi **20,7** mln. AQSH dollarini yoki jami import hajmining **3,1** % ini tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **131,8** % ni tashkil etdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari (**54,7** %), safarlar (turizm xizmatlari) (**0,2** %) va boshqa xizmatlar (**45,1** %) dan iborat bo'ldi.



Shu bilan, tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida viloyatimizning eksport salohiyati oshib borayotgani yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Shuningdek, bir qator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o'rin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.